

Boshlang'ich sinflarda nazorat ishlarni tashkil etish

G.Nazarov,
Qashqadaryo VXTXQTMOI

Boshlang'ich sinf ta'lim tizimining asosiy poydevori bo'lib, bu davrda o'quvchi yozish, hisoblash ko'nikmalariga ega bo'lish bilan bir qatorda uning tafakkur qilish faoliyati, erkin fikrlash, o'zgarlar fikrini anglay olish, o'z fikrini erkin, ravon bayon qila olish, mustaqil bajarish hamda egallagan bilimlarini o'z faoliyatida qo'llay olish kabi xislatlarni o'zida mujassam qiladi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining **dars jarayoniga** yangicha yondoshuvi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning bajargan ishlarini o'z vaqtida o'rganib, ular tomonidan erishilgan yutuqlarni rag'batlantirib, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida, qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etish yaqindan yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarning faolligini oshirishda xatolarini to'g'ri tushuntirish ishlarini olib borish bilan ularning o'z kuchlariga, bilimlariga bo'lgan ishonchni ortishiga erisha oladilar. Natijada ularning fanlarga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi.

Ma'lumki, yozma ishlar o'quvchi bilimini aniqlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Yozma ishlar orqali o'quvchi bilimi va ularning bilimlarida yo'l qo'yilgan bo'shliqlar aniqlanadi va bartaraf etish choralari ko'riladi.

Yozma ishlar 2 turga bo'linib, ta'limiy va tekshiruv xarakterga ega bo'ladi. Ta'limiy yozma ishlar o'quvchilarga o'tilgan mavzularni mustahkamlash, fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, bilimlarni chuqurlashtirish kabi vazifalarni bajarsa, tekshiruv diktantlari o'quvchilar bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni to'ldirish hamda baholash, berilgan bilimlarni mustahkamlashni ta'minlovchi ta'limiy shartlardan biri hisoblanadi.

Nazorat ishi o'quvchilarni **fanlardan** o'rganilgan bilimlarni qanday o'zlashtiriganliklarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Tekshiruv yozma ishlari o'quv dasturlarining tegishli bo'limi tugallangandan so'ng va chorak yakunida o'tkaziladi.

XTVning 2010 yil 20 iyuldagi 178-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomning 1-ilovasida o'quvchilardan olinadigan tekshiruv yozma ishlari, ya'ni oraliq (ON) materiallari fan o'qituvchilari tomonidan tayyorlanishi ko'rsatib o'tilgan. Bu o'qituvchilarni o'z ustida ishlashlari materiallarni tayyorlashda bo'limga mos shartlarni o'zlari DTS talablari asosida tanlab olish, ya'ni bir xillikdan qochishni ta'minlaydi. O'qituvchi o'quvchilar bilimlari xususiyatidan va dastur talablaridan kelib chiqib, matnni tanlash imkoniyatiga ega.

Ilgarigi MSNlarda Ta'lim markazi tomonidan berilgan mavzu barcha respublika maktablari uchun bir xil bo'lsa, endilikda o'qituvchilar tomonidan tayyorlash ko'zda tutilgan. Bularning barchasi o'qituvchilarni o'z ustilarida ishlashga majbur qiladi. Bu esa o'qituvchilarni mustaqil fikrlashlari, ijodkorlik xislatlarini o'stirishga xizmat qiladi.

Nazorat ishlarini tuzishda o'qituvchilar egallashi lozim bo'lgan elementlar bilim, ko'nikma va malakalarni, albatta, hisobga olgan holda tuzish kerak. Bunda ular ular quyidagicha yillik jadval qilib olishlari tavsiya qilinadi.

Quyida 1 sinf ona tili fanidan o'tkazilishi lozim bo'lgan nazorat ishlaridan namuna berib o'tishi lozim topdik.

1-sinf Ona tili fanidan nazorat ishlarini o'tkazish

No	Nazorat ish mavzusi	Soati	Bilim	Ko'nikma	Malaka
1 NI 10 dars	1-sinf Unli tovushlar va harflar	1	Harflarni to'g'ri va chiroyli yozish	Yozuv ko'nikmasiga ega bo'lish	Unli tovushlar va harflar haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish
2-NI 21- dars	Undosh tovush va harflar	1	Harflarni to'g'ri va chiroyli yozish	Yozuv ko'nikmasiga ega bo'lish	Unli tovushlar va harflar haqida tushunchaga ega bo'lish
3 NI	Bo'g'in ko'chirish	1	Ochiq, yopiq	Bo'g'in	Bo'g'inlar haqida

29-dars			bo'gin haqida bilish	ko'chirish ko'nikmasini hosil qilish	tasavvurga ega bo'lish
4 NI	Shaxs va narsani bildirgan so'zlar	1	Shaxs va narsa haqida tushunchaga ega bo'lish	Shaxs narsa nomini farqlay olish	Shaxs va narsalar haqida tasavvurga ega bo'lish
5 Ni 16 dars	Qanday so'rog'iga ega bo'lgan so'zlar	1	Narsalar belgilari haqida bilish	Ularni farqlay olish	Nomi, belgilari kabi tushunchalar haqida tushunchalarni shakllantirish
6 NI 27-dars	O'tilganlarni takrorlash	1	Test haqida tasavvurga ega bo'lish	Testni bajarish qoidalarini bilish	Test haqida tasavvurga ega bo'lish yil davomida o'tilgan mavzularni bilish amalda qo'llay olish

Shu tahlitda o'quvchilardan olinadigan tekshirish ishlari belgilab olinib o'tkazish tasviya etiladi.

Quyida matnlardan namunalar beriladi. O'qituvchilar shunga moslab matnlarni o'zlari tuzib olishlari mumkin:

1-nazorat ishi:

Mavzu: Unli tovushlar va harflar

Maqsadi: O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish

Nazorat shakli: diktant

Qish

Qish boshlandi. Oppoq qor yog'di. Bolalar chanada uchdilar. Qorbobo yasadilar. (11 ta so'z)

2-nazorat ishi

Undosh tovushlar va harflar

Maqsadi: O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish

Nazorat shakli: Diktant

Kitob

Ne'mat singlisiga mehribon. Yaqinda Ra'noga kitob berdi. Ra'no kitobni havas bilan o'qidi. (14 ta so'z)

3-nazorat ishi

Mavzu: Bo'g'in ko'chirish.

Maqsad: O'quvchilarning BKMni tekshirish.

Nazorat shakli: Qo'shimcha topshiriqli diktant.

Pilla

Pilla qurti bahorda boqiladi. Qurtlarga tut bargi beriladi. Izzat pilla qurti boqishda onasiga yordam berdi. (16 ta so'z)

Topshiriq: Pilla, tut, onasiga so'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'g'inlab yozing.

4-nazorat ishi

Mavzu: Shaxs va narsani bildirgan so'zlar.

Maqsad: O'quvchilarning BKMLarini tekshirish

Nazorat shakli: Diktant

Toshkent

Toshkent katta shahar. Muxtor Navoiy ko'chasida yashaydi. A'zam esa, Bektemir tumanida yashaydi. Ular Amir Temur muzeyiga bormoqchilar.

(18 ta so'z)

5-nazorat ishi

Mavzu: Qanday? so'rog'iga javob bergan so'zlar.

Maqsad: O'quvchilarning BKMLarini tekshirish

Gulzor

Tong otdi. Mayin shabada esdi. Quyosh zarrin nurini sochdi. Gulzordagi oq, sariq, qizil gullar ochildi. Gullar xushbo'y hidlarini taratdi.

6-nazorat ishi

Mavzu: Umumiy takrorlash.

Maqsad: Yil davomida olingan BKMLarni aniqlash.

Nazoratning shakli: Test sinovi.

1. Unli tovush nechta ?

A)23

B)6

D)24

2. Gaplar nimalardan tuziladi?

A) soʻzlardan

B) harflardan

D) tovushlardan

3. Shaxsni bildirgan soʻzlar qanday soʻroqqa javob boʻladi?

A) kim?

B) nima?

D) qanday?

4. Narsani bildirgan soʻzlar qanday soʻroqqa javob boʻladi?

A) kim?

B) nima?

D)qanday?

5. Kishilarning ismi, familiyasi, qanday harf bilan yoziladi?

A) kichik harf bilan

B) undosh harf bilan

S) bosh harf bilan

6. Rang bildiruvchi soʻzlarni toping?

A) shirin, koʻk, kichik

B) sariq, oq, yashil

D) katta, odobli, nordon

7. Nuqtalar oʻrniga mos soʻzlar qatorni toping?

Yozda daraxtlar..... vamevalar beradi.

A) sershox, oq

B) chiroyli, go‘zal

D) qizil, katta, chiroyli

8. Qanday va qanaqa so‘roqlarga javob bo‘lgan so‘zlar qatorini toping?

A) daraxt, gul, kitob

B) o‘qidi, keldi, oldi

D) qizil, katta chiroyli

9. Harakatni bildirgan so‘zlar qatorini toping?

A) koptok, kitob, o‘ynadi

B) o‘qidi, keldi, oldi

D) qizil, katta, chiroyli

10. Joy nomlari berilgan qatorni toping?

A) Toshkent, Xumson, Chinoz

B) Chirchiq, Go‘zal, Mosh

D) Kitob, Anvar, daftar

Nazorat ishlarini dasturda belgilangan barcha BKM elementlarini bo‘limlardan kelib chiqqan holda o‘qituvchi o‘zgartirib olish huquqiga ega

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Uzviylashtirilgan DTS va o‘quv dasturlari. 2010 yil 1/VII 6/2-sonli XTV buyrug‘i.
2. XTVNing 2010 yil 20/VII 178-sonli XTV buyrug‘i.
3. 1-sinf ona tili darsligi. T.: 2010.
4. Diktantlar to‘plami. T.: 2012.